

**VIRTUAL OLAMDA YOSHLARDA AXLOQIY IMMUNITETNI
SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN FAOLIYATNI TASHKIL ETISH**

Oripov Jamshid Yaxshiboyevich

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada muallif virtual makonda yoshlarda axloqiy immunitetni shakllantirishga qaratilgan faoliyatni tashkil etishning muhim jihatlariborasida o'zining xulosa va takliflarini nazariy asosda yoritib bergan.

Kalit so'zlar. Virtual makon, axborot xuruji, raqamli texnologiyalar, kompetentlik, zamonaviy axborot komunikatsion vositalar, integratsiya.

Аннотация.

В данной статье автор на теоретической основе изложил свои выводы и предложения относительно важных аспектов организации деятельности, направленной на формирования морального иммунитета у молодежи в виртуальном пространстве.

Ключевые слова. Виртуальное пространство, информационная атака, цифровые технологии, компетентность, современные средства информационных коммуникаций, интеграция.

Annotation.

This article article, the author on a theoretical basis, outlined his conclusions and proposals regarding important aspects of organizing activities aimed at developing moral immunity among young people in the virtual space.

Keywords. Virtual space, information attack, digital technologies, competence, modern means of information communications, integration.

Bugungi raqamli texnologiyalarining rivojlanishi va Internet tarmog'ining takomillashuvi virtual muhitni yaratishga bo'lgan urinishlarning yanada kuchaytirib yubormoqda. Virtual olam – bu voqea-jarayonlar, borliq yoki atrof-muhit borasidagi tasavvurlarni turli texnik vositalar yordamida shartli ravishda hosil qilinadigan axborotlar bilan almashtirishga qaratilgan sun'iy muhitidir. Shuning uchun ham virtual olam va uning xususiyatlarini o'rganish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Virtual olamda foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan va takomillashib boradigan sun'iy yaratilgan muhit hisoblanadi. U faqat kompyuter o'yinlaridan iborat emas. Bu borada tadqiqotchi O.F.Boynazarov: "Axborot asri bo'lgan XXI asrda insoniyatning virtual olam bilan bog'langanlik darajasi oshib bormoqda. Virtual reallik orqali inson qabul qilayotgan informasiya miqdori oshib, ba'zi bir holatlarda inson ularni analiz qilishga qodir bo'lmay qolmoqda. Axborot xurujlariga qarshi kurashishning samarali usuli, unga qarshi tura oluvchi kadrlar guruhini tashkil qilishdir" [1], - deb yozadi. Bu yerda muallif axborot xurujlariga qarshi tura oluvchi kadrlar guruhini tashkil qilish, deganda yoshlarni nazarda tutayotgan bo'lsa ajab emas. Chunki, bugungi kunda axborot xurujlari aynan yoshlarga qaratilmoqda. Shuning uchun yoshlarda axborot xurujiga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanib bormoqda.

Yoshlarda axloqiy immunitetni hosil qilish axloqiy tarbiya orqali amalga oshiriladi. Axloqiy tarbiya bevosita yuksak dunyoqarsh va mustahkam e'tiqodni shakllantirishga qaratilgan ta'lim jarayoni bilan mushtarak olib borilsagina uning ta'sirchanligi, samaradorligi yanada yuqori bo'ladi. Bunda ta'lim-tarbiya beruvchining shaxsiy sifatleri, uning fidoyiligi, mas'uliyati, teran fikri, keng dunyoqarashi, ilmi, intellektual salohiyati, innovatsiyalarni o'z kasbiy faoliyatiga qo'llay olishi muhim omil hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya beruvchining shaxsiy sifatleri xususida Imom G'azzoliy: "Shayxning (tarbiyachining) muridini tarbiyalash kaliti - yerdan ungan ne'matning yaxshi hosil bermog'i uchun dehqon uning atrofini begona o'tlar, tikanlardan tozalagani kabi bir hol"[2,18], - deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya beruvchining biz yuqorida sanab o'tgan shaxsiy sifatleri bilan yoshlarga ta'lim-tarbiya berar ekan, uning virtual olamni o'ziga xos xususiyatlarini, ijobiy va salbiy jihatlarini yoshlarga o'rgatishda turli usul va metodlardan foydalana oladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, virtual olam faqat salbiy xususiyatlarga ega emas. "Insoniyatning ilm-fan, xizmat ko'rsatish va odamlar hayotini yaxshilashda erishgan ko'plab yutuqlarida virtual makonning o'rni beqiyos. Virtual makon ko'plab qimmatli va foydali xususiyatlarga ega. Hamma foydalanishi mumkin bo'lgan virtual makonning asosiy afzalligi – bu axborotning tez tarqalishidir"[3].

Virtual olamning salbiy xususiyatlariko'proq yoshlarning Internetga qaramligini ortib borishi va axborot xurujlari ta'siriga tushub qolishida namoyon bo'lmoqda. Yoshlarning Internetga qaramligini oldini olish va ularni axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish hamda axborot yoki ma'lumotlarni filtirlash ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim.

Virtual olamda yoshlarning Internetga qaramlik extimolini ortib borishini oldini olishdaularning Internetdan foydalanish me'yorlariga rioya etishga o'rgatish lozim. Yoshlarni internedan me'yorida foydalanishga o'rgatish orqali ijtimoiy tarmoqlarga qaramlilik darajasihamda axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish mumkin bo'ladi. Natijada

g'oyaviy ta'sir o'tkazish quroliga aylanib borayotgan axborot xurujlari ta'siridan yoshlarni himoyalash mumkin bo'ladi.

Axborotdan foydalanish madaniyatiga ega har qanday shaxs, axborotni saqlash, uzatish, qayta ishlash va undan foydalanishda muayyan me'yorlarga amal qilgan xolda undan to'g'ri foydalanish kompetentligiga ega bo'ladi.

Kompetentlik shaxs xususiyatlari va holatining murakkab majmui bo'lib, ma'lum sohadagi bilim, ko'nikma va tajribani mujassamlashtiradi. Kompetentlik insonga muayyan masalalarda fikr bildirish, ma'lum qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etish yoki o'zi qaror qabul qilish imkonini beradi. Hozirgi zamon fanida kasbiy kompetentlik, ilmiy, boshqaruv, pedagogik, didaktik, metodik, ijtimoiy-psixologik kompetentlikka oid tushunchalar keng qo'llaniladi. Demak, axborotdan foydalanish kompetentligiga ega bo'lganlar axborot sohasiga doir bilim, ko'nikmalardan iborat amaliy tajribalarini namoyon qiladi.

Virtual olamda yoshlarni axborotdan foydalanish kompetentligini rivojlantirishda birinchidan, yoshlarda tanqidiy tahlilga asoslangan tafakkur, mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishga xizmat qiladigan ma'naviy-ma'rifiy profilaktik tadbirlarni muntazam tashkil etish, ikkinchidan, ta'lim-tarbiya, fan va amaliyot o'rtasida mustahkam integratsiyani ta'minlashga erishish, uchinchidan, axborotni iste'mol qilishda yoshlarni tahlillash, analiz qilish, sof axborotlarni ajrata olish salohiyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratish zarurdir.

Bugungi global-axborot asrida sun'iy muhitni yaratishga bo'lgan urinishlarning kuchayishiga, ishonchli-ishonchsiz axborot alamashinuvini tezlashuviga, axborot xurujlarining vujudga kelishiga zamin yaratayotganligi bilan ham murakkablik kasb etmoqda. Chunki, bizning ijtimoiy muloqotimizda tez-tez qo'llanilayotgan global-axborot asri yoki kompyuter asrida virtual makonga xos bo'lgan umumiylikni ta'minlovchi asosiy vosita bu axborotdir.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, muloqot qilish, ma'lumot almashish jarayonini tezlashtirib yuborganligi virtual makondagi ijobiy hodisa albatta. Ammo, ayrim guruhlar tomonidan axborot xurujlarini uyushtirish bilan buzg'unchiliklar sodir etishga urinishlarning mavjudligi tashvishlidir. Bunday axborot xurujlari atributlarida yoshlarning axloqini buzush, axloq me'yorlaridan begonalashtirishga bo'lgan harakatlar kuchayib borayotganligi virtual makondagi salbiy hodisadir.

Virtual olamda turli guruhlar tomonidan yoshlarning axloqiy tamoyillaridan begonalashtirishga qaratilgan axborot xurujlari bugungi davrda dolzarb bo'lib qolmoqda. Nega shunday? Negaki, inson, shaxs u kim bo'lishidan qat'iy nazar, axloq faqatgina kishilardagi "yaxshi xulq" va "yaxshi odat" singari cheklangan darajalar bilan o'lchanmaydi. Axloqning yuksaklik darajasi adolat, vatanparvarlik, xalqparvarlik, milliy qadriyatlarga sodiqlik, halollik, sadoqat, boshqalarning huquq va erkinliklarini tan olish kabi tushunchalar bilan bog'liqligi uning naqadar keng qamrovli ekanligidan dalolat beradi. Axloqning ana shu

jihatlarini hisobga olsak, axborot xurujlari, aynan, inson shaxsining axloqiga qaratilganligini tushunib olishimiz, mumkin.

Yoshlarning ongi va qalbini egallashga qaratilgan axborot xurujlaridan ularni saqlashda, eng avvalo, yoshlarda axloqiy immunitetni shakllantirish muhim hisoblanadi. Axloqiy immunitetni shakllantirishda dogmatik tamoyillardan voz kechib, kishilik jamiyati taraqqiyoti jarayonida shakllanib, takomillashib kelgan milliy va umumbashariy axloqiy qadriyatlar asosida profilaktik ishlarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Axloqiy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktik ishlarni tashkil etishda, birinchidan, innovatsion texnologiyalar, milliy va umuminsoniy axloq tamoyillaridan maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi, oliy ta'lim tizimida muntazam foydalanishga e'tibor qaratish, ikkinchidan, axloqiy immunitetni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot ishlarini tashkil etishda ommaviy axborot vositalari hamda ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorligini samarali tashkil etish kabilarga amal qilish lozim bo'ladi.

Virtual olamningkundan-kun kuchayib borishi bilan bir qatorda axborotdan foydalanishning imkoniyatlariva xususiyatlari ham boyib bormoqda. Modomiki, virtual olamda axborot o'ziga xos xususiyat va tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan davrda axborotdan foydalanishning quyidagi:

- jamiyatda axborot vositasida individ, shaxs, ayniqsa yoshlarda axloqiy madaniyatni rivojlantirish, inson ongi va tafakkurini shakllantirish, ijtimoiy muhitning barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy munosabatlar subyektlari, ayniqsa yoshlarning birlashuviga zamin yaratadigan axloqiy tamoyillarni jamiyatning har bir a'zosini ongi va qalbiga singdirib borishga yo'naltirish;
- davr talabidan kelib chiqib, g'oyaviy tarbiyani tashkil etish orqali axloqiy immunitetni shakllantirishda muhim bo'lgan xalqimiz ma'naviyatini tarkibiy qismlari, axloqiy qadriyatlarimiz, odob-axloq, mehr-oqibat, izzat-ikrom kabi tamoyillarni keng jamoatchilik e'tiboriga innovatsion usullar yordamida yetkazib berish;
- hozirgi zamonning dolzarb muammosi bo'lib turgan insonning ma'naviyati, madaniyati va axloqiga tahdid soluvchi ma'naviyatsizlik, madaniyatsizlik va axloqiy tubanlik g'oyalari qanchalik jozibador yoki qanchalik mahorat bilan pardoqlangan bo'lmasin ularning asl mohiyatini tushuntirib borish;
- olam, dunyo va uning mafkuraviy manzarasi o'zgarib, ko'p qutublilashib borayaotgan davrda globallashuvning muhim jihati va xususiyatlarini shaxsning ma'naviyati va axloqiga ta'sir doirasi qamrovining kengayib borishi bilan axloqiy madaniyat, axloqiy immunitet masalasi umumbashariy muammoga aylanib borayotganligi ustida mulohaza va mushohadalarni ochiqlab borish;

- axborotning yana bir imkoniyati xalqning turmush tarzi, axloqiy ideallarini o‘tmish va hozirgi davr muhitidan kelib chiqib tushuntirish orqali madaniyatning rivojlanishiga, ilm-fan yutuqlariga tayanib ong-u tafakkurimizni ko‘p qirrali qilib shakllantirishga hissa qo‘shish;
- davr talabidan kelib chiqib yoshlarda axloqiy immunitetni shakllantirishda ilm-fan yutuqlari, axloq, tarbiya borasidagi milliy va umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish va axloqiy ideallar, axloqiy normalar asosida ularni tarbiya qilish usullarini targ‘ib etish;
- eng asosiy masala shuki, bu borada axborotlarning sofligini aniqlash, nosog‘lom axborotlarning asl mohiyatini ochiqlash, analiz va sintez vositasida haqiqiy, sof axborotlarni o‘z iste’molchilariga yetkazib berish imkoniyatlari mavjud.

Virtual olamda axborotdan foydalanishda birinchidan, mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarining sonini xalqimizning soni va ehtiyojiga muttanosib tarzda tenglashtirib borish, ikkinchidan, ommaviy axborot vositalarini shunchaki, axborot yetkazuvchi vosita emas balki, o‘z faoliyatida shaxslarni axloqiy madaniyatini rivojlantirish va ularning axloqiy immunitetni shakllantirish masalalari qamrovini yanada oshirishga e’tibor qaraishi, uchinchidan, axborot olish, axborot tarqatish, axborot xavfsizligini ta’minlash sohasiga oid qonunlarni davr talabidan kelib chiqib doimiy ravishda takomillashtirish hamda soha vakillari, mutaxassislarining muntazam rag‘batlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratish kabilarkelgusidagi rejalarimizning negizini tashkil etmog‘i lozim. Ana shundagina biz virtual olam yoki global axborot asrida yoshlarni haqqoniy, sof axborotlar bilan qurollantirishimiz va ularda axborot xurujlariga qarshi immunitetni hosil qilishimiz mumkin bo‘ladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin:

Birinchidan, virtual makonda axborot kommunikatsion texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi axborot xurujlariga qarshi kurashning yangi imkoniyatlarini izlab topish;

Ikkinchidan, yoshlarning Internet va ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish me’yorlariga amal qilishga o‘rgatish;

Uchinchidan, ta’lim-tarbiya, fan va amaliyot o‘rtasida mustahkam uzluksiz integratsiyani ta’minlashga erishish;

To‘rtinchidan, yoshlarni axloqini buzishga qaratilgan, axloqsizlikni targ‘ib qiluvchi axborotlarga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishga qaratilgan ma’naviy-mafkuraviy profilaktik ishlarni mazmunan yangi tamoyillar asosida boyitishda milliy va umumbashariy axloqiy qadriyatlardan foydalanish;

Beshinchidan, yoshlarning ma’naviy va axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta’sir etuvchi omillarni samarali ishlashini ta’minlovchi mexanizmlarni yaratish orqali axborot xurujlariga qarshi kurashda qo‘l keladigan tamoyillarni amaliyotga tadbiq etish imkoniyatini beradi.

Yuqoridagi xulosalarga tayanib, yoshlarda axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan quyidagi:

birinchidan, virtual makonda axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishga yoʻnaltirilgan faoliyatni nazariy-metodologik qimmatga ega boʻlgan keng koʻlamli tashkiliy va ilmiy-amaliy ishlar orqali har tomonlama chuqur ochib berish;

ikkinchidan, xalqimizga xos maʼnaviy-axloqiy tamoyillarni zamon talablariga mos ravishda yoshlarni tarbiyalashga eʼtibor qaratish;

uchinchidan, yoshlarni maʼnaviy-axloqiy jihatdan buzishni nazarda tutuvchi axborot xurujlaridan himoya qilishga qaratilgan faoliyatni muntazam takomillashtirib borish kabi tavsiyalarga amal qilish ijobiy natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boynazarov O.F. “Yangi virtual olamda inson axloqiy ongining transformatsiyasi” mavzusidagi maqolasi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor VOLUME 1 | ISSUE 11 ISSN 2181-1784 SJIF 2021: 5.423.
2. Абу Ҳамид Муҳаммад ал-Ғаззолий. Охиратнома, -Бухоро: 1992. -В. 18.
3. Maxammatov O.S. Virtual makonda yoshlarning ijtimoiy xavfsizligi. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali. 6-son. 2022. –В.95.